

**FRANSUZ DOVUDGULI – QARSHI VOHASI UCHUN ISTIBQOLLI TUR**

Abdixoliqova S.M., Qarshi davlat universiteti magistranti

To‘g‘ri tashkil etilgan gulchilik yuqori foydali tarmoq hisoblanadi. Shuning uchun gulchilik ham qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari singari ishlab-chiqarish unumdorligini oshirish asosida rivojlanishi maqsadga muvofiq. Bu masalalarni muvaffaqiyatli yyechishda soha mutaxassisleri manzarali o‘simliklarning bioekologik xususiyatlarini o‘rganish asosida ularni yetishtirish va agrotexnikasini ishlab chiqishlari dolzarb masala hisoblanadi. Shunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.08.2021 yildagi “Respublika hududlarida gulchilik va ko‘chatchilik sohalarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-5209-son qaroridagi vazifalar qatorida mahalliy tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashtirilgan gullarni yetishtirishning ilmiy asoslangan usullarini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish ham belgilab berilgan (1).

Qarshi vohasi sharoitida ko‘kalamzor hududlarni bahor-yoz-kuz oylari mobaynida yam-yashil holda saqlash zamonaviy shaharsozlikning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Qarshining keskin kontinental iqlim sharoiti, ayniqsa yoz oylarida havoning issiq va quruq bo‘lishi bu muammoni bartaraf etishda qator qiyinchiliklarni tug‘diradi (2, 3, 4). Fransuz dovudguli Qarshi vohasining bunday sharoitiga chidamli o‘simliklardan biri bo‘lib hisoblanadi.

**Fransuz dovudguli - *Tagetes patula*** Murakkabguldoshlar oilasi vakili bo‘lib, bo‘yi 20-40 sm keladi. To‘pguli oddiy yoki qalqonsimon. Novdalar uchidagi uzun gulbandlarda joylashgan. Gulo‘rni silliq, yalang‘och. Gulbandlarning savatchaga taqalib turadigan tomoni kengaygan. Savatchasining shakli turli-tuman, qavat-qavat yoki bir qavatli bo‘lishi mumkin, diametri 4-7 sm. Gullari sariq, zarg‘aldoq va qizg‘ish-qo‘ng‘ir rangda. Savatchasi ba‘zida ikki xil tusli. Savatcha chetidagi gullari tilsimon, asriq, zarg‘aldoq, limonrang, qo‘ng‘ir-qizil tusda bo‘lsa, savatcha o‘rtasidagi naysimon gullar har doim sariq yoki zarg‘aldoq rangda bo‘ladi. Alohida gulida 5 ta changchi bo‘lib, urug‘chining ustunchasiga birikib ketgan. Urug‘chi tugunchasi ostki, bir uyli. Barglari o‘rtacha kattalikda, patsimon qirqilgan, chetlari arrasimon, to‘q yashil rangda. Barglar novdada qarama-qarshi yoki



navbat bilan joylashgan. Barg yaproqlarida qo'ng'ir tusda yaltirab turadigan bezchalar ko'rinib turadi.

Urug'lari pistacha bo'lib, asosi ingichkalashgan, boshi uchib tarqalishga moslashgan. Urug'ining yarmidan ko'proq qismi qora, qolgan qismi esa sarg'ish-malla rangda. Urug'ning o'lchami 1-1,2 sm. Qarshi sharoitida gullagan o'simliklardan terilgan urug'larining 1 grami 450 donani tashkil etdi.

Qarshi sharoitida *T. patula* urug'larini ochiq joyga aprelning birinchi o'n kunligida ekish maqsadga muvofiq. Bu paytda bahorgi kechki sovuq kunlar o'tib ketgan, tuproqning yuqori 5 sm qavatidagi harorat 15-20°C gacha isigan bo'ladi. Urug'lar vaqtida terib olinmasa ular to'kilib ketadi.

Qarshi vohasi sharoitida dovulgullarning ertachi gullashiga va uzoq muddat gullab turishiga erishish maqsadida ularni issiqxonada ekib, aprel oyida doimiy ochiq joyga ko'chirish tavsiya qilinadi. Buning uchun urug'lar doimiy joyga ko'chirish muddatidan 40-45 kun oldin issiqxonada ekiladi. Urug'lar issiqxonada ekilgandan 10 kun o'tib una boshlaydi. Maysalarda ikkita-uchta chinbarglar hosil bo'lganda ularni yagonalash (siyraklatish) kerak. Doimiy joyga ko'chirishga tayyor ko'chatda to'rtta-beshta barg bo'lishi kerak. Bu jarayon asosan maysalar 25-30 kunlik bo'lganda amalga oshiriladi. O'simlikda beshta-oltita barg hosil bo'lganda uni azotli mineral o'g'it bilan (15-20 g/m<sup>2</sup>) oziqlantirish va meyorida sug'orish lozim. Gulzorni begona o'tlardan tez-tez tozalab turish ko'chatlarni o'sib rivojlanishi va keyinchalik mo'l gullashiga yaxshi ta'sir qiladi. O'simlikni 4-5 marta sug'organdan keyin tuproqni yumshatish kerak.

*T. patula* ning gullari savatcha to'pgulda yig'ilgan. Savatchalardagi gullar soni mavsumga ko'ra o'zgarib turadi. Bahor va kuz oylarida savatchalarning ochilib turishi uzoqroq, yoz oylarida esa qisqa muddat davom etdi. Bitta o'simlikda ochilib turgan savatchalar soni ham mavsumga ko'ra turlicha bo'ldi. May-iyul oylarida bitta o'simlikda bir vatning o'zida 8-20 taga savatcha ochilib turgan bo'lsa, avgust-noyabr oylarida bir vaqtda ochilib turgan savatchalar miqdori har bir o'simlikda 30-40 tani tashkil etdi.

*T. patula* novdalarida savatchalarning ochilishi bazipetal tarzda boradi. Birinchi bo'lib asosiy novdaning uchidagi savatcha ochiladi. Shundan so'ng asosiy novdaning birinchi va ikkinchi tartib o'qlaridagi savatchalar ochiladi. Savatcha ichidagi gullar esa



birin-ketin akropetal tarzda ochiladi. Ya'ni dastlab savatcha chetidagi gullar ochila boshlaydi. Oxirida savatcha markazidagi gullar ochiladi.

*T. patula* gullari ochilishining boshlanishi sekin kechadi. Dastlab savatchaning chekkalarida joylashgan bepusht tilsimon gullar oqila boshlaydi. Ularning yozilishi ikki kun mobaynida sodir bo'ladi. Savatcha ichidagi naysimon gullar esa keyinroq, uchinchi kundan boshlanib, har kuni 10-15 tadan ochila boshlaydi. Tilsimon gullarning ochilib turish davomiyligi naysimon gullarga ko'ra uzoqroq davom etadi. Bitta gulning ochilib turish davri mavsumga ko'ra turlicha (10-35 kun) bo'ladi.

Dovulgul issiqsevar, yorug'sevar va qurg'oqchilikka bardoshli o'simlik bo'lib hisoblanadi. Alohida parvarish talab etmaydi. Bahorda yosh o'simliklar uchun havoning optimal harorati 18-20°C bo'lib hisoblanadi. Kuzda havo harorati 10°C dan pasayib ketsa barglari qizg'ish, ya'ni antotsian tusga kiradi va o'sish va rivojlanishdan to'htayi. Havo haroratining juda pasayib ketishi o'simlikka halokatli ta'sir ko'rsatadi. O'simlik havoning yuqori haroratiga ancha bardoshli. Atmosfera qurg'oqchiligiga nisbatan qisman bardoshli. Qarshi vohasi sharoitida ularni yarim soya joylarda ham yaxshi o'sib rivojlanganligi kuzatildi.

*T. patula* namlikka talabchan emas. Namlikning tanqisligiga ancha bardoshli bo'lishiga qaramay ularni vaqtida sug'orib turish mo'l gullashiga va ko'p miqdorda urug' hosil qilishiga sabab bo'ladi. Meyoridan ortiq sug'orilgan o'simlik ildiz bo'g'zidan chiriydi.

Shunday qilib, *T. patula* Qarshi vohasining iqlim sharoitiga mos keladigan issiqsevar, yorug'sevar va qurg'oqchilikka chidamli manzarali o'simlik bo'lib hisoblanadi.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.08.2021 yildagi "Respublika hududlarida gulchilik va ko'chatchilik sohalarini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-5209-son qarori / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.08.2021 y., 07/21/5209/0755-son.
2. Саматова III. А. Морфобиологические особенности канн в условиях Каршинского оазиса //Полевой журнал биолога. – 2019. – Т. 1. – №. 4. – С. 202-208.



3. Саматова Ш. А., Каттабоева Г. С. Особенности роста и развития гибридных ирисов в условиях жаркого и сухого климата //Биологические ресурсы: изучение, использование, охрана. – 2018. – С. 262-266.
4. Саматова Ш. А. Условия культивирования канны гибридной в аридной зоне //Innovations in life sciences. – 2022. – С. 135-136.